

MEDICINE AND MEDICAL INSTITUTIONS IN THE ERA OF AMIR TIMUR AND THE TIMURIDS

Mardonbek Rashidov

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti

mardonbeekk@gmail.com

Abstract: This article discusses the development of medicine and medical institutions during the era of Amir Timur and the Timurids. The article examines the construction of hospitals, pharmacies, and the development of medical education during this period, along with their scientific foundations and influence on modern medicine. During the Timurid period, favorable conditions were created for doctors, and patients were treated in specially equipped institutions, with active scientific work carried out in the field of medicine. Based on historical sources and scholarly works, the author highlights the contribution of the Timurids to the development of medicine and their influence on the formation of modern healthcare. The legacy of this period is also explored in the context of further developments in medicine and its significance in contemporary medical research and healthcare practices.

Keywords: Medicine, madrasa, hospital, hammam, scientific, treatment, practice, research, field.

МЕДИЦИНА И МЕДИЦИНСКИЕ УЧРЕЖДЕНИЯ ЭПОХИ АМИР ТЕМУРА И ТИМУРИДОВ

Аннотация: Данная статья посвящена развитию медицины и медицинских учреждений в эпоху Амир Темура и Тимуридов. В статье рассматривается строительство больниц, аптек, а также развитие медицинского образования в этот период, их научные основы и влияние на современную медицину. В эпоху Тимуридов были созданы благоприятные условия для врачей, больные лечились в специально оборудованных учреждениях, а также велась активная научная работа в области медицины. Автор, опираясь на исторические источники и научные работы, подчеркивает вклад Тимуридов в развитие медицины и их влияние на формирование современного здравоохранения. Также рассматривается наследие этого периода в контексте дальнейшего развития медицины и его значимость в современных исследованиях и практике здравоохранения.

Ключевые слова: медицина, медресе, больница, хаммам, научный, лечение, практика, исследование, сфера.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TIBBIY INSHOOTLARI VA TABOBATI

Annotatsiya: Mazkur maqola Amir Temur va Temuriylar davrida tibbiyot va tibbiy inshootlarning rivojlanishi, shuningdek, bu davrdagi sog'liqni saqlash tizimining shakllanishi haqida so'z yuritadi. Maqolada Temuriylar hukmronligida qurilgan shifoxonalar, dorixonalar, va tibbiy ta'limning rivojlanishi, ularning ilmiy asoslari va zamonaviy tibbiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Temuriylar davrida tibbiyot sohasidagi yutuqlar, shifokorlar uchun yaratilgan sharoitlar, bemorlarning davolanishi va ma'naviy jihatlari, shuningdek, tibbiyot sohasidagi yirik ilmiy asarlar va izlanishlar alohida e'tiborga olingan. Maqola, tarixiy manbalar va ilmiy asarlarga asoslanib, bu davrning tibbiyotga qo'shgan hissalarini yoritadi va bugungi kunda ham tibbiyot sohasi uchun ahamiyatini ta'kidlaydi. Temuriylar davrining tibbiyotdagi merosi ilmiy tadqiqotlar va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Tibbiyot, madrasa, shifoxona, hammom, ilmiy, muolaja, amaliyot, tadqiqot, soha.

Kirish. Amir Temur va uning avlodlari hukmronlik qilgan davr, nafaqat harbiy, siyosiy va madaniy yuksalish bilan, balki tibbiyot sohasida ham o'ziga xos yangiliklar bilan ajralib turadi. Temuriylar davri, O'rta Osiyo tarixida ilm-fan, san'at va madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bir davr sifatida e'tirof etiladi. Xususan, bu davrda tibbiyot sohasida, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimlarida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Tibbiyot amaliyotini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish uchun keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, bir qancha tibbiy inshootlar qurilgan, va davolash tizimlari zamon talablariga javob beradigan darajaga ko'tarilgan.

Amir Temur, o'zining barcha faoliyatida ilm-fan va madaniyatni qo'llab-quvvatlagan bir hukmdor sifatida tarixda o'z o'rnini topgan. Uning davrida ko'plab ilmiy markazlar, kutubxonalar, tibbiyot maktablari tashkil etilgan. Temur va uning farzandlari, jumladan, Umar Shayx, Shoxrux va boshqa temuriy sultonlar ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlab, o'z shaharlarida shifoxonalar, madrasalar, hamda boshqa tibbiy maqsadlar uchun inshootlar qurishga katta e'tibor berishgan. Shuningdek, shifokorlar, tabiblar va ilmiy xodimlar uchun yuksak sharoitlar yaratish, tibbiy ta'limni rivojlantirish, va umumiy sog'liqni saqlash tizimini yaxshilashga intilish davrning ajralmas qismiga aylangan.

Temuriylar davrida tibbiyot nafaqat amaliyot, balki ilmiy izlanishlar va tibbiy kitoblar bilan boyigan bir soha bo'lib, ko'plab ilmiy asarlar yozilgan va muhim tibbiy ishlanmalar ishlab chiqilgan. Mavjud bo'lgan dori-darmonlar va davolash usullari

zamonaviy tibbiyot talablariga mos ravishda yaxshilanib, sog'liqni saqlash tizimi mukammallashgan. Temuriylar davrida tibbiyot, faqatgina jismoniy kasalliklarni davolash bilan cheklanmagan, balki insonning ruhiy va ma'naviy holatini ham hisobga olishga katta ahamiyat berilgan.

Bu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida qurilgan tibbiy inshootlar, sog'liqni saqlash tizimlari va tibbiyot amaliyoti haqida kengroq ma'lumotlar keltiriladi. O'rta asrlar tibbiyoti va uning rivojlanishiga qo'shilgan katta hissa, bu davrning ilmiy yutuqlari va o'ziga xos davolash usullari bugungi kunda ham ilm-fan dunyosida o'rganilmoqda. Temuriylar davri tibbiy inshootlari va tabobati haqida so'z yuritish, nafaqat tarixiy merosni chuqur o'rganishga, balki bugungi tibbiyot tizimlarining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan qadimiy bilimlarni kashf etishga imkon yaratadi.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Temuriylar davridagi tibbiyotning rivojlanishi, jumladan, shifoxonalar, mohir tabiblar va jarrohlik sohasidagi yutuqlar, o'sha davrda sog'liqni saqlashga bo'lgan alohida e'tiborni aks ettiradi va bu davr tibbiyotining ahamiyati yuksak ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Temuriylar davri me'moriy chiligi nisbatan o'rganilgan arxitektura sohasi hisoblanadi. Ammo Markaziy Osiyo va umuman musulmon sharqidagi fuqarolik me'morchiligi tarixiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar orasida Temuriylar davridagi tibbiy muassasalar haqida maxsus ishlangan biror nashr mavjud emas.

Nemis olimi G.Dneterning islom mamlakatlaridagi shifoxonalar arxitekturasiga bag'ishlangan asarida Temuriylar davrida Markaziy Osiyoda qurilgan tibbiyot muassasalariga umuman to'xtalib o'tilmagan[1,261-262p]. Fransuz tadqiqotchisi M.Kadr Samarqand hukmdori Ibrohim Tamg'achxonga [2,314-324p] tegishli bo'lgan ikki vaqfni o'rganishga bag'ishlangan maqolasida, Qoraxoniylar davrida (XI asr) Samarqandda qurilgan fuqarolik shifoxonasi haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Ushbu vaqflarning mazmuni va Samarqanddagi shifoxona xizmatining ahvoli O.G. Bolshakov[3,12c] va A.A. Qodirovning maqolalarida[4,23-26c] batafsil izohlangan.

Sharq xalqlari fuqarolik me'morchiligiga bag'ishlangan boshqa mualliflarning ishlari Temuriylar davri Markaziy Osiyodagi tibbiy muassasalar mavzusini jiddiy ko'rib chiqmagan. Ushbu maqolada o'rta asr Islom Sharqida tibbiy xizmatning shakllanish tarixini qisqacha bayon qilishga va shu asosda Temuriylar davri Markaziy Osiyodagi davolash muassasalarining me'moriy xususiyatlarini ko'rsatishga harakat qilamiz.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ma'lumki, davolash va sog'lomlashtirish muassasalari qatoriga davolash maskanlari (shifoxonalar, gospitalar), tabiiy termal manbalarda qurilgan sog'lomlashtirish inshootlari, shuningdek, hammomlar ham shular qatoriga kiradi. O'rta asrlarda bu inshootlar keng

madaniy-gigiyenik vazifalar bilan bir qatorda ma'lum darajada sog'lomlashtirish xizmatlarini ham bajargan.

Bu davolash maskanlari o'z davridagi amaliy tibbiyot rivojida, shuningdek, Sharq mamlakatlaridagi keyingi davolash muassasalarining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Ularning me'moriy yechimlari, asosan, asosiy bino (ma'bad, ibodatxona yoki ta'lim maskani) hajmli-rejali tuzilishida bunyod etilgan. Bu davolash muassasalarining ko'pchiligi (masalan, monastirlar qoshidagi shifoxonalar va Mohenjo-Darodagi balchiq bilan davolash muassasasi) hovlili kompozitsiyaga ega bo'lgan.

Musulmon Sharqidagi birinchi fuqarolik shifoxonasi — "bimariston" 707-yilda xalifa al-Valid tomonidan Qohirada qurilgan[5,37c]. Undan avvalroq, Damashqda moxovlar uchun mo'ljallangan davolash maskani faoliyat ko'rsatgan. VIII–XIII asrlarda xilma-xil xalifalar va boshqa hukmdorlar o'z nomlarini abadiylashtirish hamda aholining e'tiborini qozonish maqsadida shifoxonalarni nafaqat poytaxt markazlarida, balki xalifalikning kichik va o'rta shaharlari hududlarida ham barpo etishni boshlaganlar. Aynan shu davrda Marv, Buxoro, Samarqand, Gurganj va Zerandj (Seiston poytaxti) kabi shaharlarida birinchi fuqarolik shifoxonalari tashkil etilgan[6,78-85c].

Tadqiqotchi A.A. Qodirovning fikriga ko'ra, O'rta Osiyodagi birinchi fuqarolik shifoxonasi Samarqandda joylashgan. Ammo undan avval Marv shifoxonasi mavjud bo'lgan.

Ba'zi musulmon shaharlarida bir nechta shifoxonalar navbatma-navbat barpo etilgan. Xususan, VIII–IX asrlarda Qohirada uchta, IX–X asrlarda Bag'dodda beshta, XV asrda esa Temuriylar davrida G'irotda to'rtta shifoxona faoliyat ko'rsatgan. Musulmon shifoxonalari G'arbiy Yevropa monastir shifoxonalaridan farqli o'laroq, diniy hokimiyatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritgan. Ularning qurilishi va moliyalashtirilishi davlat mablag'lari va xayriyachi homiylar hisobidan amalga oshirilgan[5,37c].

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Mintaqa shaharlarida dorixona rastalari va uy dorixonalarining mavjud bo'lishi aholiga tabiblar retseptlari asosida dori-darmon yetkazib berishga xizmat qilgan. Bunday shifoxona xizmatlari va dorilar bilan ta'minot ko'plab shaharlarda, jumladan, mo'g'ullar istilosiga qadar ham mavjud bo'lgan. Ammo istilo davrida ko'plab davolash muassasalari vayron qilinib, inqirozga yuz tutgan. Ehtimol, o'sha paytda Samarqanddagi Ibrohim Tamg'achxon shifoxonasi ham yo'q qilingan[7,292c].

Shifoxonalar va boshqa fuqarolik arxitekturasini binolarini qurish ishlari Temur va Temuriylar davrida qayta tiklandi. XIV asrda Samarqandda Amir Temur saroy majmuasi tarkibida "Dor ush-shifo" (Davolash uyi) tashkil etilgan. Ushbu shifoxonada tajribali shifokorlar bemorlarni davolash bilan birga tibbiyot sohasida dars berganlar[8,371-372p].

Masalan, ushbu shifoxonaning taniqli mudarrislaridan biri sifatida Sohibqiron Temur o'z zamonasining mashhur olim-tabibi Mir Sayyid Sharif Sheroziyni tayinlagan. U bilan birga boshqa mashhur tabib Mansur ibn Muhammad ibn Ilyos ham ishlagan. Amir Temur tibbiyotga alohida qiziqish bildirgan. U o'zining "Tuzuklar"ida shunday deb yozadi: "Men olimlar va tabiblar bilan yaqin aloqada bo'ldim. Tabiblarga bemorlarimni (jarohatlanganlarni) davolatdim"[9,98c].

Amir Temur qo'shinlarida bemor va yarador jangchilarni davolash bilan shug'ullangan tabiblar faoliyat yuritgan. Sohibqiron shuningdek, har bir shaharda masjid, madrasalar, xonaqolar, kambag'allar uchun boshpana va bemorlar uchun davolash maskanlari qurish haqida buyruq bergan: "Bemorlar uchun shifoxonalar quring va ularga tajribali tabiblarni tayinlang".

Amir Temur va Temuriylar davrida shaharlarda umumiy shifoxonalar qurilgan va faoliyat yuritgan. Masalan, taniqli olim M.E. Masson XV asrda Hirotda bir nechta shifoxona mavjud bo'lganligini qayd etadi. Ular orasida ikkita shifoxona Temuriylar sulolasiga aloqador shaxslar tomonidan qurilgan. Ulardan biri Temurning o'g'li Umarshayxning bevasi, keyinchalik Shohruxning rafiqasi bo'lgan Mulk og'o tomonidan, ikkinchisi esa Shohruxning nabirasi Mirzo Alovuddavla[10,132c] tomonidan bunyod etilgan. Xondamirning yozishicha, bu shifoxonalar Alisher Navoiy davrida qayta ta'mirlanib, faoliyatini davom ettirgan[11,61-68b].

Amir Temur hukmronligi davrida, boshqa sohalar qatori, tibbiyot ham rivojlangan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Sohibqiron davrida har bir shaharda shifoxonalar faoliyat yuritgan bo'lib, ularda o'z ishiga malakali va bilimdon tabiblar ishlagan.

Masalan, Samarqand shahrida "Dor ush-shifo" nomli katta shifoxona mavjud bo'lib, unga taniqli tabib Mir Sayyid Sharif Sheroziy rahbarlik qilgan. Ushbu davrda Xisomiddin Ibrohim Kirmoniy, Mavlono Fayzulloh Tabriziy va Mansur ibn Muhammad kabi yirik tabiblar faoliyat ko'rsatgan.

Manbalarda keltirilishicha, Mavlono Fayzulloh Tabriziy Amir Temurning shaxsiy tabibi bo'lgan va Sohibqironning barcha yurishlarida uni kuzatib yurgan. Amir Temur tabib va hakimlarni jamiyatning taraqqiyotida muhim o'rin egallagan shaxslar sifatida qadrlagan. "Temur tuzuklari"da bu haqda quyidagicha so'z yuritilgan: "Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim". Ushbu gaplar Temur davrida qo'shin tarkibida jarohatlangan jangchilarni davolash uchun malakali shifokorlar mavjud bo'lganini tasdiqlaydi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida esa jarrohlik sohasi alohida e'tiborga loyiq darajada rivojlangan. Mo'hir jarrohlardan biri Tojiddin Hakim edi. U murakkab jarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, shuhrat qozongan. Masalan, u ko'zning kataraktasini operatsiya yo'li bilan davolagan.

Tojiddin Hakim jarrohlik jarayonida yuqori gigiyena va antiseptika usullariga e'tibor qaratgan. U amaliyotdan oldin jarrohlik asboblarini olovda qizdirib, sterillangan holatga keltirgan. Operatsiya vaqtida esa qo'lini piyozga botirgan, chunki piyoz mikroblarni o'ldiruvchi xususiyatga ega. Ushbu usul Tojiddin Hakimni O'rta Osiyoda antiseptika usulining asoschisi sifatida tanitgan.

1480–1485-yillarda Alisher Navoiy Hirotda daryo sohilidagi go'zal hududda maxsus tibbiy inshootlar majmuasini qurdirgan. Ushbu majmuaga "Shifoia" (Shifo uyi) shifoxonasi, "Ixlosiya" madrasasi va "Safoia"[12,37-39] nomli hammom kirgan. "Shifoia" so'zi sog'liqni, "Safoia" esa poklikni anglatadi. Shifoxona binosining hammom yonida joylashgani davolash va gigiyenaga oid jarayonlarni uyg'unlashtirishga yordam bergan. Ushbu hamkorlik, masalan, hammomda cho'milish, massaj kabi sog'lomlashtiruvchi usullar bilan bir qatorda bemorlarni davolash tadbirlarini o'tkazishga imkon yaratgan. Bunday uyg'unlik usuli sharqning boshqa davlatlarida ham shifoxona qurilishida qo'llanilgan edi. Bu integratsiya bemorlarning sog'lig'ini tiklashda tibbiy va gigiyenik xizmatlarning o'zaro birlashgan yondashuvini ta'minlagan.

Ta'kidlash joizki, "Shifoia" shifoxonasida nafaqat bemorlar davolangan, balki tajribali shifokorlar talabalar bilan amaliyot o'tkazgan. O'qitish jarayoni madrasada tashkil etilgan. Shifoxona tarkibida, ehtimol, dorixona ham bo'lgan, chunki XV asr tarixchisi Xondamir shunday yozadi: "Bu barakali maskanda odamlar doimo o'zlariga zarur bo'lgan dori-darmon va davolovchi aralashmalarni topardi"[13,43c]. "Shifoia" shifoxonasi shu qadar mashhur bo'lgan ediki, boshqa shaharlarning bemorlari ham bu yerga kelib davolanar edi. Shifoxona shifokorlari esa ko'pincha boshqa shaharlarga borib, bemorlarni ko'rikdan o'tkazishardi. Xondamirning qayd etishicha, shifoxona tashqi ko'rinishi bo'yicha madrasaga o'xshagan.

Bu shuni anglatadiki, bino ichki hovliga ega bo'lgan va unda bemorlarning dam olishi uchun sharoit yaratilgan. Shifokorlar davolash bilan bir qatorda talabalarga dars berganligi sababli, binoda shifoxona palatalaridan tashqari talabalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan xona – ehtimol, ayvon ham bo'lgan. Shunday qilib, binoning ichki hovli va ayvonli reja asosida qurilgani taxmin qilinadi.

Hirotdagi "Shifoia" shifoxonasi bilan bir qatorda XI asrda Samarqandda qurilgan shifoxona ham, umuman olganda, Sharqdagi ko'pchilik shifoxonalar ichki hovli uslubida barpo etilgan[14,18-19c]. Ba'zi shifoxonalarda bir necha yopiq ichki hovlilar bo'lgan. Bu yopiq hovli uslubi bemorlar uchun izolyatsiya qilingan muhit yaratish va ularga moslashtirilgan ixtisoslashtirilgan davolash bo'limlarini tashkil etishga imkon bergan. Shifoxonalar ko'pincha boshqa jamoat binolari yonida yoki ularning majmualari tarkibida qurilganligi sababli, atrofda kengroq yashil maydonlarni ajratish imkoniyati bo'lmagan. Bu esa, ehtimol, bemorlar dam olishi uchun

izolyatsiyalangan ichki hovlilarni tashkil qilish zaruratini keltirib chiqargan va natijada ko'p hovlili yoki bir nechta ichki hovlili uslub shakllangan.

Shifoxonalarining hovli qismi favvoralar, o'rindiqlar, gulzorlar, bezakli daraxtlar va butalar bilan bezatilgan. Qurilish joyini tanlashga alohida e'tibor berilgan. Masalan, Hirotidagi "Shifoiya" shifoxonasi kanal bo'yida, keng va yashil hududda qurilgan. Shifoxona binolarini qurishda simmetriya, proporsionallik va arxitektura shakllarining uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Shifoxonalar alohida xujralar (palatalar), tabiblar uchun xonalar (shifokorlar xonasi), auditoriyalar, ambulatoriyalar, dorixonalar, oshxonalar, yordamchi xonalar va yashil o'simliklar bilan bezatilgan hovlidan iborat bo'lgan. Ba'zan hovlilar o'simliklarsiz, faqat o'rtasida suv havzasi bilan qurilgan. Palatalar bemorlarning kasallik turiga qarab joylashtirilgan (ko'z kasalliklari, jarrohlik, ichki kasalliklar). Ayrim shifoxonalarda, masalan, Marv shifoxonasida, ruhiy kasallar uchun alohida binolar mavjud bo'lgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida Xuroson va Movarounnahr shaharlarida shifoxonalardan tashqari, ko'plab hammomlar va tabiiy termal buloqlar asosida davolash maskanlari ham tashkil etilgan. Masalan, tarixchi Mu'iniddin Isfizari G'irot vodiysida joylashgan Temuriylar hukmdori Sulton Husayn Boyqaroning (XV–XVI asrlar) qurilish ishlari haqida yozgan. U shunday deydi: "O'ba qishlog'i yaqinidagi tog' etagida issiq buloq bo'lgan. U turli dardlardan aziyat chekkan odamlarni yaqin-uzoqlardan jalb qilgan. Sulton Husaynning avvalgi hukmdori Temuriy Abu Said Mirzo (1455–1469) bu buloq yonida katta bino qurdirgan. Ammo Sulton Husayn bu binoni yanada kengaytirib, atrofiga bog'lar, gulzorlar va sabzavot bog'lari yaratgan, bu esa bu joyning ahamiyatini bir necha barobar oshirgan"[15,147c].

Ushbu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, dastlab termal buloq yonida suv bilan davolash maskani kabi asosiy bino qurilgan. Keyinchalik u kengaytirilgan va buloq davolash kompleksi shaklini olgan. Xuroson hududida xalq tabobatiga asoslangan davolash maskanlari, ehtimol, XX asr boshigacha mavjud bo'lgan, chunki taniqli rus sharqshunos olimi N.V. Xanikov o'z sayohatlari davomida G'irot vodiysidagi bu inshootlarni ko'rgan va ularni quyidagicha tasvirlagan: "Bu hovuzlar, xuddi Eronning boshqa bunday inshootlari kabi, ayvon va katta yopiq zalga ega bo'lib, uning o'rtasida issiq suvli hovuz joylashgan. Atrofda esa cho'miluvchilar kiyimlarini qo'yishi uchun keng tosh o'rindiqlar bor"[16,127c]. Oddiy hammomlardan farqli ravishda, bunday davolash maskanlari termal oqimli suv bilan ta'minlangan va maxsus isitish tizimiga ega bo'lmagan. Tashqi ko'rinishi hammomlarni eslatsa-da, rejaviy jihatdan unda hovuz va oqimli suvli vannalar joylashgan.

Temuriylar hukmronligi davrida faqatgina Samarqandning o'zida Registon bozorlaridan tashqarida va uning atrofida o'nga yaqin hammom qurilgan. Ular orasida Temurning qal'asidagi hammom, Muhammad Sulton (Temurning nabirasi) madrasasi

yaqinidagi hammom, shayx Abdulays hammomi va Registondagi Mirzo Ulug‘bek hammomi bor edi. Arxeolog E.Yu. Bur‘yakovaning qayd etishicha, Temur qal‘asidagi hammom o‘zining ulug‘vorligi, go‘zalligi va hashamatli bezaklari bilan ajralib turgan. Uning pollari marmar va oniks plitalar bilan bezatilgan[17,168-169]. XIV–XV asrlardagi boshqa Samarqand hammomlari, xususan, Ulug‘bek hammomi, Muhammad Sulton hammomi va Qosim Sulton hammomi ham o‘zining nafisligi va qulayligi bilan mashhur bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha: “Ulug‘bek madrasasi va xonaqosi yaqinida yaxshi hammom qurdirgan. Uning pollari turli rangdagi toshlar bilan qoplangan. Xuroson va Samarqandda bunday hammom yo‘q bo‘lsa kerak”[18,44]. Bu ma‘lumotlar o‘sha davr hammomlarining nafaqat amaliy, balki dekorativ ahamiyatini ham ko‘rsatib beradi.

XV asrga oid hammom qoldiqlari Balxda olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan. Shu davrga tegishli bo‘lgan Shahrisabzdagi hammom esa hanuz faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu hammom bir necha marta qayta tiklangan bo‘lsa-da, Temuriylar davriga oid o‘zining dastlabki rejasi va isitish tizimini saqlab qolgan. Har ikki hammomning markaziy qismi "miyon saroy" deb atalgan asosiy yuvinish zalidan iborat bo‘lib, uning o‘qlari bo‘ylab kichik qopqonlar joylashtirilgan. Bir tomonda kirish yo‘lagi, yechinish xonasi va dam olish xonasi, ikkinchi tomonda esa sovuq va issiq suvli yuvinish xonalari va ularga tutash qizitilgan yoki sovuq suv rezervuarlar(katta idish) joylashgan.

O‘rta asrlarda Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan bunday hammomlar sayohatchilar va savdogarlarni nafaqat dam olish, balki ko‘plab kasalliklardan davolanish imkoniyatlari bilan ham kutib olgan. Shu sababli hammomlar nafaqat mahallalarda, balki shahar maydonlari, shahar darvozalari, karvonsaroylar va bozorlar yaqinida, ya‘ni odamlari ko‘p yig‘iladigan va mehmonlar ko‘p bo‘lgan joylarda qurilgan[19,67-69c].

1404-yilda Amir Temur saroyiga, Samarqandga tashrif buyurgan ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixo qiziqarli ma‘lumotlarni keltiradi: “Temur qo‘shinlari qayerga borsa, hammomlar va hammomchilarni o‘zi bilan olib yuradi. Ular chodirlarini o‘rnatib, temir hammomlar uchun sharoit yaratishadi. Bu hammomlarda qozonlarda suv isitiladi va barcha zarur narsalar taqdim etiladi”[20,115c]. Ushbu ma‘lumot shuni ko‘rsatadiki, Temur nafaqat o‘z qo‘shinlarining sog‘lomligini ta‘minlash uchun harakat qilgan, balki ular uchun mobil hammom tizimini ham yo‘lga qo‘ygan. Bu qo‘shinlarning harakatlanishi davomida tozalikni ta‘minlash va jangchilarni qayta tiklashda muhim rol o‘ynagan.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Temuriylar davrida shifoxonalar, dorixonalar, tibbiy maktablar, termal manbalarda davolash inshootlari va hammomlarning keng qurilishi ulkan ma‘naviy va axloqiy madaniyatni ko‘rsatadi. Bu

inshootlar xalqning va qo'shnlarning sog'lomligini ta'minlashga bo'lgan e'tiborni aks ettiradi.

Amir Temur va Temuriylar davri tibbiy inshootlari va tabobati nafaqat o'sha davrning ilmiy va madaniy rivojlanishining, balki inson sog'lig'ini saqlash tizimining yuksalishidagi muhim bosqichlardan biri bo'lib xizmat qilgan. Temuriylar hukmronligida qurilgan tibbiy inshootlar, xususan, shifoxonalar, dorixonalar, va boshqa sog'liqni saqlash markazlari, davolash usullari va zamonaviy tibbiyotning rivojlanishiga asos bo'lgan. Ular faqatgina jismoniy kasalliklarni davolash bilan cheklanib qolmasdan, insonning ma'naviy va ruhiy holatini ham inobatga olgan. Shuningdek, tibbiy ta'limni rivojlantirishga, ilmiy tadqiqotlar olib borishga va shifokorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratilgan.

Bu davrda tibbiyot ilmiy jihatdan rivojlanib, ko'plab ilmiy asarlar va tibbiy izlanishlar amalga oshirilgan. Temuriylar tomonidan qurilgan tibbiy inshootlar va zamonaviy tibbiyot tizimining asoslarini tashkil etgan bu yutuqlar, o'zining ilg'or va innovatsion yondashuvlari bilan o'z davrida katta ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda ham, Temuriylar davrining tibbiyotga qo'shgan hissalari ilmiy izlanishlar, tarixiy tadqiqotlar va sog'liqni saqlash sohasida o'rganilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri tibbiyot sohasidagi yutuqlar, shifokorlarning ishlash sharoitlari, tibbiy inshootlarning rivojlanishi, va umumiy sog'liqni saqlash tizimi o'zining ilg'or va o'ziga xos yondashuvlari bilan ajralib turadi. Ular o'z zamonida yuqori madaniyat va ilm-fan rivojlanishining asoslarini yaratgan va bu bilimlarni keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan.

Mazkur davrdagi davolash muassasalari nafaqat o'z vazifalari, balki arxitekturaviy xususiyatlari bilan ham diqqatga sazovor bo'lgan. Shu sababli, Temuriylar davri Markaziy Osiyo arxitekturasi tarixida bu inshootlarni alohida bo'lim sifatida o'rganish katta ilmiy ahamiyatga ega. Bu inshootlar tibbiy xizmatni rivojlantirish, shaharsozlik va madaniy me'rosda yuksak ma'naviyat namunasi bo'lib xizmat qilgan.

Adabiyotlar:

1. Getter, Dieter. Zur Architektur islamischer Krankenhäuser // Sydhoffs Archiv. Für Geschichte der Medizin und der Naturwissenschaften. Bd. 45 (1961),
2. Khadr, M. Deux actes de waqf d'un Qarahanide d'Asie Centrale. Avec une introduction par Claude Cahen. // A.A. T., CCLV., 1967.
3. Большакова, О. Г. Два вакфа Ибрагима Тамгач-хана в Самарканде // Страны и народы Востока. Вып. X. М., 1970.
4. Кадыров, А. А. Первая гражданская больница в древнем Самарканде // Медицинский журнал Узбекистана.
5. Сорокина, Т. С. История медицины: Краткий курс лекций. М., 1988.

6. Уралов, А. С. Из истории строительства больниц в Средней Азии (средневековый период) // Социальные проблемы архитектуры Узбекистана. Ташкент, 1989.
7. Рашид ад-Дин. Переписка (перевод, введение и комментарий А. И. Фалиной). М., 1971.
8. Sam i Hamerneh. Development of Hospitals in Islam // Journal of the History of Medicine and Allied Sciences. Vol. XVII. № 3. 1962.
9. Кадыров, А. А. История медицины Узбекистана. Ташкент, 1994.
10. Массон, М. Е. К исторической топографии Герата XV века // Великий узбекский поэт. Ташкент, 1984.
11. Urolov, A., Suvonqulov, I. Allomalar olami. Toshkent, 1991
12. G'iyosiddin Xondamir. Makorimul-axloq. Toshkent, 1917
13. Ахмедов, Б. Хондамир. Ташкент, 1965.
14. Маньковская, Л. Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX — начало XX в.). Ташкент, 1980
15. Семенов, А. А. Гератское искусство в эпоху Алишера Навои // Родоначальник узбекской литературы. Ташкент, 1940.
16. Хаников, Н. В. Экспедиция в Хорасан. М., 1973
17. Бурякова, Э. Ю. Раскопки бань на территории средневекового Самарканда // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 20. Ташкент, 1986
18. Бабур. Бабур-намэ (Записки Бабура). Кн. 2. Ташкент, 1982
19. Уролов, А. Секрет древней хаммам // Жизнь и экономика. 1991
20. Клавихо, Р. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1404—1406). М., 1990